


### XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi<sup>1)</sup> 2025-yil mart oyida 5 079,4 ming so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 17,4 foizga o‘tdi.

Yanvar – mart oylarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o‘sishi iqtisodiy faoliyat turlarining bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida (150,5 foizga), sanoat sohasida (127,7 foizga), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (122,2 foizga) kuzatildi.

O‘rtacha ish haqining yuqori miqdori iqtisodiy faoliyat turlarining bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida 15 624,7 ming so‘m (viloyat bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 3 marta ko‘p), axborot va aloqa sohasida 9 509,8 ming so‘m (199,6 foizga), tashish va saqlashda 7 752,2 ming so‘m (162,7 foizga), sanoat sohasida 6 216,7 ming so‘m (130,5 foizga) kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi  
(2025-yil yanvar-mart)



<sup>1)</sup> Bu yerda va keyingi o‘rinlarda dastlabki ma‘lumotlar, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub‘ektlarisiz, qayta hisoblangan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha  
oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(qishloq xo'jalikligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

(ming so'm)

	<i>Yanvar-mart</i>		<i>Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, foiz</i>	
	<i>2024-yil</i>	<i>2025-yil</i>	<i>2024-yil</i>	<i>2025-yil</i>
<b>Jami viloyat bo'yicha</b>	<b>4 020,9</b>	<b>4 763,9</b>	<b>x</b>	<b>x</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	4 868,3	6 216,7	121,1	130,5
Qurilish	4 578,9	4 807,7	113,9	100,9
Savdo	4 846,2	5 430,5	120,5	114,0
Tashish va saqlash	6 776,0	7 752,2	168,5	162,7
Axborot va aloqa	7 871,1	9 509,8	195,8	199,6
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	10 381,6	15 624,7	2,6 m.	3,3 m.
Ta'lim	3 115,3	3 650,9	77,5	76,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy hizmatlar ko'rsatish	3 314,3	3 719,6	82,4	78,1
Boshqa faoliyat turlari	4 409,4	5 229,5	109,7	109,8



Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 650,9 ming so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 117,2 foizni tashkil etdi.

**O'rtacha oylik nominal  
hisoblangan ish haqi**

Ta'lim sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini Viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori, Buxoro shahrida 5 414,0 ming so'mni viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (148,3 foiz), Qorovulbozor tumanida 4 012,0 ming so'mni (109,9 foiz) tashkil etgan bo'lsa, Peshku 2 466,2 ming so'mni (67,6 foiz), Vobkent 2 861,8 ming so'mni (78,4 foiz), Shofirkon tumanlarida 2 945,2 ming so'mni (80,7 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



**Sanoat** sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **6 216,7** ming so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **127,7** foizni tashkil etdi.

Sanoat sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Kogon tumanida **24 168,5** ming so'mni (**3,0** marta ko'p), Buxoro tumanida **19 298,4** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **3,0** marta ko'p) va Qorovulbozor tumanida **8 555,7** ming so'mni (**137,6** foiz) tashkil etgan bo'lsa, Vobkent tumanida **2 413,7** ming so'mni (**38,8** foiz), Shofirkon tumanida **2 473,9** ming so'mni (**39,8** foiz) va Romitan tumanida **3 219,5** ming so'mni (**51,8** foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



**Qurilish sohasida** ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **4 807,7** ming so'mni, 2024-yilning mos davriga nisbatan **105,0** foizni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qorovulbozor tumanida **6 478,0** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **134,7** foiz), Shofirkon tumanida **5 859,7** ming so'mni (**121,9** foiz), Peshku tumanida **5 508,7** ming so'mni (**114,6** foiz) tashkil etgan bo'lsa, Romitan tumanida **2 257,3** ming so'mni (**47,0** foiz) boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

## **O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida** ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3 719,6** ming so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **122,2** foizni tashkil etdi.

Mazkur sohalardagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Romitan tumanida **4 859,0** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **130,6** foiz), Peshku tumani **4 139,8** ming so'mni (**111,3** foiz), Kogon shahri **4 083,2** ming so'mni (**109,8** foiz) tashkil etgan bo'lsa, Qorako'l tumanida **2 904,1** ming so'mni (**78,1** foiz), Buxoro tumanida **3 135,1** ming so'mni (**84,3** foiz), Jondor tumanida **3 348,9** ming so'mni (**90,0** foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida** ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **15 624,7** ming so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan **150,5** foizni tashkil etdi.



**O'rtacha oylik ish haqi** ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, eng yuqori miqdori Qorovulbozor tumanida **6 897,0** ming so'mni viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (**144,8** foiz), Kogon shahrida **6 598,1** ming so'mni (**138,5** foiz), Buxoro shahrida **5 786,1** ming so'mni (**121,5** foiz) etgan bo'lsa, Shofirkon tumanida **3 199,4** ming so'mni (**67,2** foiz), Jondor tumanida **3 256,6** ming so'mni (**68,4** foiz), Vobkent tumanida **3 442,1** ming so'mni (**72,3** foiz) tashkil etib boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

**Buxoro viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(qishloq xo'jalikligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

(ming so'm)

	<i>Yanvar - mart</i>		<i>Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, foiz</i>	
	<i>2024-yil</i>	<i>2025-yil</i>	<i>2024-yil</i>	<i>2025-yil</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>4 020,9</b>	<b>4 763,9</b>	<b>x</b>	<b>x</b>
Buxoro sh.	4 729,4	5 786,1	117,6	121,5
Kogon sh.	5 792,5	6 598,1	144,1	138,5
<i>tumanlar</i>				
Olot	3 464,9	3 553,9	86,2	74,6
Buxoro	3 411,9	3 914,5	84,9	82,2
Vobkent	2 762,2	3 442,1	68,7	72,3
G'ijduvon	3 040,6	3 445,2	75,6	72,3
Kogon	3 637,7	5 540,9	90,5	116,3
Qorako'l	3 037,2	3 533,6	75,5	74,2
Qorovulbozor	6 099,2	6 897,0	151,7	144,8
Peshku	3 111,7	3 452,8	77,4	72,5
Romitan	3 472,7	4 180,2	86,4	87,7
Jondor	3 067,9	3 256,6	72,3	68,4
Shofirkon	2 749,0	3 199,4	68,4	67,2

### Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Nominal hisoblangan ish haqi** – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

**O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni** – homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilda bo'lgan, bevosita tug'uruqxonaning o'zidan yangi tug'ilgan chaqaloqni farzandlikka olish munosabati bilan ta'tilda bo'lgan, hamda bolani uning qonun hujjatlariga muvofiq ma'lum bir yoshga to'lguniga qadar parvarish qilish bo'yicha ta'tilda bo'lgan ayollar; ta'lim muassasalarida o'qiyotgan va ish haqi saqlanmagan holda qo'shimcha mehnat ta'tilida bo'lganlar, shuningdek, ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lgan xodimlarni inobatga olmagan holda, mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan va ish haqi hisoblangan xodimlarning o'rtacha sonini ifodalaydi.

**Ish vaqti**- korxonada yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo'lgani dan qat'iy nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

**Ish haqi**- joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

**Ish haqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar**- Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi hajmiga bir qator bozor omillari va bozordan tashqari omillar ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to'lashning muayyan darajasi vujudga keladi. Bular tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o'zgarishlari, mehnatga bo'lgan talab, narxining o'zgaruvchanligi, iste'mol tovarlari va xizmatlar narxi o'zgarishi va boshqalar kiradi.